

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI, FUNDAMENTAL VA
AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI HUZURIDAGI FAN DOKTORI
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

MARDONOV SHUXRAT NUMONJONOVICH

**BOZE-EYNSHTEYN KONDENSATLARIDA NOCHIZIQLI DINAMIKA,
POLARONLAR VA O'Z-O'ZINI TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI**

01.04.02 – Nazariy fizika

**Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата докторской диссертации
Content of the thesis of doctoral dissertation

Mardonov Shuxrat Numonjonovich

Boze-Eynshteyn kondensatlarida nochiziqli dinamika, polaronlar va o'z-o'zini tashkil etish mexanizmlari 3

Мардонов Шухрат Нумонжонович

Нелинейная динамика, поляроны и механизмы самоорганизации в конденсатах Бозе-Эйнштейна 25

Mardonov Shukhrat Numonjonovich

Nonlinear dynamics, polarons and self-organization mechanisms in Bose-Einstein condensates 47

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 54

**“TIQXMMI” MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI, FUNDAMENTAL VA
AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI HUZURIDAGI FAN DOKTORI
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FUNDAMENTAL VA AMALIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

MARDONOV SHUXRAT NUMONJONOVICH

**BOZE-EYNSHTEYN KONDENSATLARIDA NOCHIZIQLI DINAMIKA,
POLARONLAR VA O'Z-O'ZINI TASHKIL ETISH MEXANIZMLARI**

01.04.02 – Nazariy fizika

**Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Fizika-matematika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.DSc/FM195 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiyasi “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ifar.uz), Milliy axborot agentligi veb-sahifasi (www.uza.uz) va «Ziyonet» ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchilar:

Axmedov Bobomurat Jurayevich,
fizika-matematika fanlari doktori, professor
O‘zR FA Astronomiya instituti, Toshkent

Yevgeniy Ya. Sherman,
fizika-matematika fanlari doktori, professor
Basklar Mamlakati universiteti, Bilbao, Ispaniya.

Rasmiy opponenlar:

Nakamura Katsuhiko,
fizika-matematika fanlari doktori, professor,
O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent

Abishev Medeu Yerjanovich,
fizika-matematika fanlari doktori, professor
Qozog‘iston Respublikasi Milliy Fanlar Akademiyasi muxbir a‘zosi,
Al-Farobiy nomidagi Qozog‘iston Milliy universiteti, Olmaota

Razzokov Jamoliddin Inotullayevich,
fizika-matematika fanlari doktori,
Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, Toshkent

Yetakchi tashkilot:

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand Davlat Universiteti

Dissertatsiya “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti huzuridagi **DSc.03/31.03.2022.T/FM.10.04** raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “___” _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko‘chasi 39-uy, Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, 312- majlislar zali; tel.: 71 237-09-61.; e-mail: info@ifar.uz

Dissertatsiya bilan “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko‘chasi, 39-uy, Fundamental va amaliy tadqiqotlar instituti, kutubxonasi; tel.: 71 237-09-62

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2023-yil “___” _____ dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi)

A.A. Abdujabbarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi o‘rinbosari f.-m.f.d., professor

E.X. Karimbayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi f.-m.f. bo‘yicha PhD

B.M. Narzilloev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi f.-m.f.d.

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda ilk bor kvant fizikasidagi bashorat qilingan makroskopik hodisa Boze-Eynshteyn kondensati (BEK) hisoblanadi. Boze-Eynshteyn kondensati materiyaning ajoyib va g'ayrioddiy holati bo'lib, unda bir guruh bozonlar, subatomik zarralar bir xil kvant holatni egallaydi. Bu hodisa 1924 yilda hind fizigi Satendra Nas Boze va Albert Eynshteyn tomonidan bashorat qilingan va 70 yildan ko'proq vaqt o'tgach, birinchi marta 1995 yilda eksperimental ravishda kuzatilgan. Ushbu tajribalar 2001 yilda fizika bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi. BEKning kashfiyoti fizika uchun, jumladan, o'ta o'tkazuvchanlik, o'tasuyuqlik va kvant hisoblashlarni o'rganish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, u atom va kondensirlangan muhitlar fizikasida yangi tadqiqot yo'nalishlarini ochdi.

Boze-Eynshteyn kondensati nazariyasidagi fizikasining eng qiziqarli mavzularidan biri bu o'zaro ta'sir qiluvchi zarralardan tashkil topgan Boze-Eynshteyn kondensatlarini tushunishdir. Kondensatni tashkil qiluvchi zarralar o'zaro ta'siri ikki xil xususiyatga ega bo'lishi, yani o'zaro itaruvchan yoki tortishuvchan bo'lishi mumkin. Sintetik spin-orbital bog'lanish (SOB) bilan Boze-Eynshteyn kondensatining fizik xususiyatlarini o'rganish Boze-Eynshteyn kondensati to'g'risidagi bilimlarni yanada kengaytiradi. Spin-orbital bog'lanish holatida optik tarzda yaratilgan atom psevdospini-1/2, atom impulsi va sintetik magnit maydon bilan birlashadi. Spin-orbital bog'lanish qattiq jismlar fizikasida mavjud bo'lgan simmetrik Rashba va Dresselhaus kabi, ko'p shakllarga ega bo'lishi mumkin. Nochiziqli fotonik panjaralar kabi boshqa tizimlarda soliton formadagi Boze-Eynshteyn kondensati tushunchasini kengaytirish bo'yicha harakatlar davom etmoqda. Bundan tashqari, eksperimental tarzda yaratilishi mumkin bo'lgan tartibsiz potentsiallardagi Boze-Eynshteyn kondensati xususiyatlarini o'rganish nochiziqli dinamika va kvant lokalizatsiyasi (mahalliylashuvi) o'rtasidagi munosabatlarini ko'rsatib beradi. Bundan tashqari, Boze-Eynshteyn kondensatida holatida solitonning harakatini o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lib, uning dinamikasiga tartibsiz potensial va spin-orbital bog'lanish sezilarli darajada ta'sir qilishi mumkin, hatto yarim klassik rejimda ham. So'nggi yillarda Boze-Eynshteyn kondensati koinotdagi ba'zi hodisalarni bashorat qilish uchun astronomiya sohasidagi olimlarning e'tiborini tortdi. Katta materiya to'lqini sifatida Boze-Eynshteyn kondensati qorong'u materiyaning xususiyatlarini taqlid qilishi mumkin va ularni o'rganish qorong'u va ko'rinadigan materiyaning dinamikasi va xususiyatlari haqida tushuncha berishi mumkin. Umuman olganda, Boze-Eynshteyn kondensatining dinamik xususiyatlarini o'rganish bizning dunyo haqidagi tushunchamizga sezilarli ta'sir ko'rsatishi va muhim texnologik yutuqlarga olib kelishi mumkin. Bu esa ushbu ilmiy tadqiqot ishini global darajada dolzarbligini asoslaydi.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda fundamental va amaliy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlarini rivojlantirishga tobora ko'proq e'tibor berilmoqda. Xususan, istiqbolli yo'nalishlardan biri bo'lgan nazariy fizikani rivojlantirish bugungi kunning muhim muammosidir. Yurtimizda ilm-fanning muvaffaqiyatli rivojlanishi

uchun fundamental tadqiqotlar va ishlanmalarning asosiy yo‘nalishlari va ularni amaliy qo‘llash O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Strategiyasida¹ o‘z aksini topgan. Shuning uchun Boze-Eynshteyn kondensatlarining makroskopik dinamikasini o‘rganish fundamental tadqiqotlar sohasidagi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mazkur dissertatsiya ishi davlat me‘yoriy hujjatlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi “Fizika sohasida ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5032-sonli qarorlari hamda ushbu sohadagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qilaqdi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi-ning ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurs tejamkorligi» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.² Vaqtga bog‘liq bo‘lgan Gross-Pitayevskiy tenglamasi (GPT) bilan tavsiflangan Boze-Eynshteyn kondensatining nochiziqli dinamikasi, kvazi-ikki o‘lchovli Boze-Eynshteyn kondensatining kollapsi, tashqi tasodifiy potentsiallardagi Boze-Eynshteyn kondensati dinamikasi dunyoning yetakchi olimlari tomonidan eksperimental va nazariy jihatdan o‘rganilgan, jumladan, Ispaniya (G. Muga) Portugaliya (V.V. Konotop), Amerika Qo‘shma Shtatlari, Kolorado universiteti va NIST (E.A. Kornell, C.E. Wieman, V. Ketterle, M. Edvards, D. Kleppner, A. J. Leggett), Germaniya (T. V. Hänsch, I. Bloch, D. Jaksh, M. Weidemüller), Fransiya: (J. Dalibard, Ch. Salomon, T. Giamarchi), Buyuk Britaniya (S.L. Kornish, K. Burnett), Kanada: (R.G. Hulet), Italiya (M. Inguscio, S. Stringari, L. Pitaevskii, L. Salasnich), Isroil (B.A. Malomed, N. Davidson), Rossiya (A.Fetter, E.I. Rashba, V.V. Kartashov) va boshqalar.

Boze-Eynshteyn kondensatlarda kollaps (qulash) nazariyasi doirasida mahalliy olim F.X. Abdullayev va Y. Kogon, A.E. Muryshev, G.V. Shlyapnikov kabi xorijiy mualliflar tomonidan o‘rganilgan. Bir guruh E.A. donli, N.R. Klaussen, S.L. Kornish, J.L. Roberts, E.A. Kornell va C.E. Vieman kabi olimlar tomonidan Bose–Eynshteyn kondensatlarining kollapsi va portlash dinamikasi eksperimental ravishda olingan.

Boze-Eynshteyn kondensatlarida Spin-orbital bog‘lanish va Zeeman ta’sirini immitatsiya qilish imkoniyati mavjudligida Y.-J Lin, R.L.Kompton, K.Ximenes-Garsiya, J.V.Portu, I.B. Spielman, X. Zhai, V. Galitski kabi olimlar tomonidan katta

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-yanvardagi № PF-60 son farmoni “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.

²Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: <http://arxiv.org>; <https://webofknowledge.com>; <https://scholar/google.com>. J. Nature, J. Science, J. Reviews of Modern Physics, J. Physical Review Letters; J.; va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

hissa qo'shildi va bu nohiziqli hodisalarning o'zaro ta'siri va tizimlarning spin dinamikasiga katta qiziqish uyg'otdi.

Polaron tushunchasi, ya'ni biror-bir o'rnatilgan muhitda bog'liq holatni hosil qiladigan tashqi zarracha, fizikadagi eng qiziqarli g'oyalardan biri hisoblanadi. Bu L.D.Landau va R.P.Feynmanning muhim asarlarida paydo bo'lib, qattiq jism va kondensirlangan muhit fizikasining turli sohalarida, shu jumladan magnit hodisalarida (F.C Zhang and T.M. Rice tomonidan o'rganilgan) bundan tashqari panjara deformatsiyasi effektlarining o'zgaishida (V.V. Konotop, J.T. Devreese, M.A. Semina, M.M. Glazov and E.Ya. Sherman tomonidan o'rganilgan) yetakchi va samarali tushunchalardan biriga aylandi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

So'nggi bir necha o'n yilliklardan beri Bose–Eynshteyn kondensatining kollaps hodisasi keng miqyosda o'rganilib kelinmoqda va uni nazorat qilishning ko'plab turli usullari taklif qilindi va tekshirildi. Bu yondashuvlardan biri kondensatni kollapsiga qarshi barqarorlashtirish uchun tashqi potentsiallardan foydalanish, garmonik potentsialni o'rnatish yoki atomlararo o'zaro ta'sirlarni sozlash uchun Feshbax rezonanslaridan foydalanishdir. Yana bir yondashuv - tizimning nohiziqli dinamikasini kollaps uchun ishlatish va keyin uni oldini olish uchun teskari aloqa nazorat qilish usullarini foydalanish hisoblanadi.

Umuman olganda, Boze-Eynshteyn kondensatining kollapsini nazorat qilishni o'rganish ko'plab eksperimental va nazariy o'rganishlarning faol tadqiqot yo'nalishi hisoblanadi. Ba'zi tegishli nashrlar quyidagilarni o'z ichiga oladi: M. Edwards and K. Burnett, Phys. Rev. A 51, 1382 (1995); J. Javanainen and M. Mackie, Phys. Rev. A 66, 013607 (2002); S. T. Karpiuk, et al., Phys. Rev. Lett. 109, 205302 (2012); K. Adhikari, J. Phys. B 49, 170201 (2016).

Spin-orbital bog'langan Boze-Eynshteyn kondensatlari so'ngi yillarda keng qamrovli nazariy va eksperimental tadqiqotlar mavzusiga aylandi. Spin-orbital bog'langan Boze-Eynshteyn kondensatlarni o'rganish spin Hall effektlari, topologik izolyatorlar va Abel bo'lmagan o'lchov maydonlari kabi yangi hodisalarni kashf etishga olib kelgan turli nazariy ishlarda o'rganilgan (Zhai, H. Reports on Progress in Physics, 78(2), 026001 (2015); N. Goldman, G. Juzeliūnas, P. Öhberg, & I.B. Spielman, Reports on Progress in Physics, 77(12), 126401 (2014)). Spin-orbital bog'langan Boze-Eynshteyn kondensatlar, shuningdek, yuqori haroratli o'ta o'tkazgichlar va topologik izolyatorlar kabi murakkab kondensatsiyalangan moddalar tizimlarini simulyatsiya qilish uchun platforma sifatida ishlatilgan (Y. Xu, F. Zhang, & C. Zhang, Reports on Progress in Physics, 79(6), 066501 (2016); M. Aidelsburger, et al. Physical Review X, 8(3), 031027 (2018)). Bundan tashqari, Spin-orbital bog'langan Boze-Eynshteyn kondensatlar atom interferometri, kvant simulyatsiyasi va kvant ma'lumotlarini qayta ishlash kabi turli xil eksperimental ilovalarda qo'llanilgan (Y.J. Lin, et al. Nature, 471(7336), 83 (2011); P. Wang, et al. Physical Review Letters, 117(21), 215301 (2016)).

Boze-Eynshteyn kondensatlarida polaron hosil bo'lishi ham keng o'rganilgan, chunki u tashqi aralashma va atrofdagi kondensat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tushunishda muhim rol o'ynaydi. Polaron hosil bo'lishi aralashma va atrofdagi

kondensat o‘rtasidagi kuchli bog‘lanish tufayli yuzaga keladi va bu aralashmani bozonlar bilan yopishiga olib keladi. Boze-Eynshteyn kondensatlarda polaronni o‘rganish Bose polaroni, Fermi polaroni va Fröhlich polaroni kabi turli hodisalarning kashf etilishiga olib keldi, ular turli nazariy ishlarda o‘rganilgan (T. Yin, D. Cocks, and W. Hofstetter, Phys. Rev. A 92, 063635 (2015); N.B. Jørgensen, L. Wacker, K.T. Skalmstang, M.M. Parish, J. Levinsen, R.S. Christensen, G.M. Bruun, and J.J. Arlt, Phys. Rev. Lett. 117, 055302 (2016); Z.Z. Yan, Y. Ni, C. Robens, M.W. Zwierlein, Science 368, 190 (2020); J. Takahashi, R. Imai, E. Nakano, and K. Iida, Phys. Rev. A 100, 023624 (2019); A. Schirotzek, C.-H. Wu, A. Sommer, and M.W. Zwierlein, Phys. Rev. Lett. 102, 230402 (2009)). Boze-Eynshteyn kondensatlarda polaronlarning shakllanishi kondensirlangan holatlar tizimlarida aralashmalar dinamikasini o‘rganish uchun, shuningdek, Boze-Eynshteyn kondensatlarda o‘ta sovuq aralashmalarining xatti-harakatlarini o‘rganish uchun platforma sifatida ishlatilgan (M. Cetina, et al. Science, 354 (6316), 96-99 (2016); C. Kohstall, M. Zaccanti, M. Jag, et al. Nature 485, 615–618 (2012)).

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi quyidagilar doirasida amalga oshirildi: O‘zbekiston Innovatsion rivojlanish vazirligining F-FA-2021-432 (2021-2025) raqamli ilmiy loyihasi; O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi tomonidan moliyalashtiriladigan “Yosh olimlarning xorijiy ilmiy tashkilotlarda qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarini tashkil etish va moliyalashtirish to‘g‘risida”gi 2022-yil 19-yanvardagi 2-sonli shartnomasi; O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi “El-yurt umidi” Mutaxassislarni xorijda tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish jamg‘armasining 2019 yil stipendiyasi;

Tadqiqot maqsadi nochiziqli Gross-Pitayevskiy tenglamasi asosida turli ichki va tashqi tizimlar ta’siridagi Boze-Eynshteyn kondensatining yangi nochiziqli dinamik xususiyatlarini rivojlantirish, Boze-Eynshteyn kondensatini makroskopik hodisa sifatida dinamik xususiyatlarini klassik fizika (Nyuton mexanikasi) ba’zi qonunlari yordamida tavsiflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Boze-Eynshteyn kondensatining kollapsiga spin-orbital bog‘lanish ta’sirini va kollapsga to’sqinlik qiluvchi kritik shartlarni aniqlash;

Gross-Pitayevskiy tenglamasida diagonal va ichki spin-komponentlarning nochiziqliklari bo‘lgan holda, kondensat spiniga tashqi magnit maydoni qo‘llash orqali kondensat kollapsiga ta’sirini o‘rganish;

tartibsiz potensial va spini kuchli o‘zaro ta’siri ostidagi Boze-Eynshteyn kondensatida solitonning harakat dinamikasini tahlil qilish;

Gross-Pitayevskiy tenglamasi va klassik fizika qonunlari bilan tavsiflangan bir va ikki o‘lchovli Boze-Eynshteyn kondensatida polaron effekli o‘rnatilgan tashqi zarrachaning kondensat bilan o‘zaro bog‘liqlik dinamikasini o‘rganish;

bir o'lovli Boze-Eynshteyn kondensatida "gravitatsion" o'zaro ta'sirga ega ikkita zarrachalar dinamikasi bilan modellashtirilgan qorong'u materiyaning bir hil bo'lmagan zichligi modelini tahlil qilish.

Tadqiqot ob'ektlari Boze-Eynshteyn kondensati, spin, soliton, tasodifiy potentsial, tashqi o'rnatilgan zarralar, polaronlardir.

Tadqiqot predmeti Spin-orbital bog'langan Boze-Eynshteyn kondensatining kollapsi; tasodifiy potentsialda spin-orbital bog'langan soliton dinamikasi; Boze-Eynshteyn kondensatidagi polaronlar va tashqi zarralar.

Taqdidot usullari. Boze-Eynshteyn kondensati nazariyasining matematik apparati, klassik fizika ba'zi qonunlari va xususiy differensial tenglamalar sistemasi yechishning analitik va raqamli usullarini qo'llash bilan hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor spin-orbital bog'lanish va tashqi magnit maydon tomonidan boshqariladigan kondensat spinining kvazi-ikki o'lovli kondensat kollapsiga ta'siri o'rganildi va spinga bog'liq anomal tezlik kondensat kollapsini to'liq nazorat qilishi ko'rsatildi;

ilk bor spinga bog'liq anomal tezlik tufayli tasodifiy potentsialda soliton dinamikasining lokalizatsiyasi yoki delokalizatsiyasi uchun Zeeman bog'lanishi muhim rol o'ynashi ko'rsatildi;

ichki tortishuvchan spin komponentalariga ega Boze-Eynshteyn kondensatining siljishi Zeeman maydonidagi spin presessiyasi va tasodifiy potentsial mavjudligining birgalikdagi effekti tufayli yuzaga kelishi mumkinligi ko'rsatilgan;

ilk bor Gross-Pitayevskiy tenglamasi va klassik Nyuton mexanikasi qonunlari bilan tavsiflangan bir va ikki o'lovli Boze-Eynshteyn kondensatlari va polaronlarning o'zaro bog'liqlik dinamikasi ko'rsatildi;

Ilk bor bir o'lovli Boze-Eynshteyn kondensatida ikkita tashqi o'rnatilgan zarralarning "gravitatsion" o'zaro ta'siri dinamikasi bilan modellashtirilgan qorong'u materiyaning bir hil bo'lmagan zichligining soddalashtirilgan modeli taqdim etildi. Polaron, ya'ni o'rnatilgan zarracha yaqinidagi Boze-Eynshteyn kondensati zichligining o'zgarishi zarralar orasidagi "gravitatsion" kuchlari ta'sirida yuzaga keladigan dinamikani sezilarli darajada o'zgartirishi va gravitatsiyaviy qulash vaqtining o'zgarishiga olib kelishi aniqlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Kvazi-ikki o'lovli Boze-Eynshteyn kondensatining kollapsni boshqarish uchun spin-orbital bog'lanishidan kelib chiqadigan anomal tezlikning kollaps tezligiga nisbatan kritik qiymatlarini aniqlanishi tajriba o'tkazishga ahamiyatliligi bilan asoslanadi.

spin-orbital bog'lanish va Zeeman ta'siriga proporsional bo'lgan spinga bog'liq anomal tezlik tufayli solitonning lokalizatsiyasi yoki delokalizatsiyasining analitik va sonli shartlari aniqlandi. Yetarlicha kuchli Zeeman maydoni potentsialning tasodifiy minimallari yaqinida yorqin solitonning lokalizatsiyasiga olib kelishi ko'rsatildi;

Gross-Pitayevskiy va klassik Nyuton tenglamalari sistemasida tasvirlangan polaron va kondensatning o'zaro bog'liqgan birjinsli bo'lmagan dinamikasi ko'rsatildi. Boze-Eynshteyn kondensati polaronlar uchun o'zini yumshoq kvant materiya sifatida tutishi aniqlandi;

polaron effekti zarralar orasidagi Nyuton "gravitatsiyasi" kuchlari ta'sirida yuzaga kelgan dinamikani sezilarli darajada o'zgartirishi va gravitatsiyaviy qulash vaqtining o'zgarishiga olib kelishi ko'rsatildi;

statsionar bo'lmagan potentsialdagi kondensat dinamikasining "gravitatsiyalanuvchi" tashqi zarrachalar harakatiga ta'siri tahlil qilinadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiya ishida matematik va nazariy fizikaning standart usuli, jumladan, yuqori samarali sonli usullar va dasturlardan foydalanilganligi; boshqa mualliflarning nazariy natijalarining muvofiqligi sinchkovlik bilan solishtirilganligi; xulosalar Boze-Eynshteyn kondensatlari nazariyasining asosiy qoidalariga juda mos kelishi bilan izoxlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiyada ishlab chiqilgan formalizm Gross-Pitayevskiy tenglamasi bilan tavsiflangan makroskopik modda sifatida Boze-Eynshteyn kondensatining nochiziqli dinamik xususiyatlarini tahlil qilish asosida Boze-Eynshteyn kondensatini kvant hisoblashlar va kvant ma'lumotlar sohalarda keng qo'llash bilan belgilanadi. Shuningdek, kvant materiyaning makroskopik xususiyatlarini chuqurroq tushunishni yoritib berishi, atom kondensatlarining turli xil ta'sirlarini o'rganish orqali bugungi kunda hatto asosiy xususiyatlari ham yoritilmagan qorong'u materiyaning xususiyatlari va dinamikasini yoritib berishi mumkin bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ulardan Boze-Eynshteyn kondensatining nochiziqli dinamikasini, masalan, kollapslanadigan materiyani, spin dinamikasini, deformatsiya parametrlarini, siljishlarni o'rganishda, shuningdek Nyutonning gravitatsion modelidagi tuzatishlardan qorong'u materiya modellarini baholash uchun foydalanish mumkin. Natijalar kondensirlangan holatning tabiati va dinamikasini tahlil qilish, kuzatuv tajribalarini ishlab chiqishda ham foydali bo'lishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Sharqiy Yevropadagi hamkorlar bilan institutsional hamkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun SCOPES dasturi doirasida Shveytsariya Milliy jamg'armasi ("Schweiz. Nationalfonds") granti IZ74Z0_160527/1.

Spin-orbital bo'glangan Boze-Eynshteyn kondensatlarining kollapsi bo'yicha chop etilgan maqolalarga yuqori impakt faktorli jurnallarda chop etilgan 40 dan ortiq ilmiy maqolalar tomonidan havola qilingan (H. Sakaguchi, B. Li va B.A. Malomed, Phys. Rev. E 89), 032920; Y. Chjan, M.E. Mossman, T. Busch va boshqalar. Front. Fizika 11, 118103; H. Sakaguchi, E.Ya. Sherman va B.A. Malomed, Phys. Rev. E 94, 032202; B.A. Malomed 2018 EPL 122, 36001 va boshqalar).

Turli tizimlarda spinga bog'liq anomal tezliklarning dinamik xususiyatlarini ishlab chiqish uchun tasodifiy potentsialdagi solitonning spin orqali kiritilgan

dinamik jarayonlar bo'yicha chop etilgan maqolalarga 10 dan ortiq ilmiy maqolalar tomonidan havola qilingan (J. Sun, Y. Chen, X. Chen va Y. Zhang, Phys. Rev. A 101, 053621; J. Yang va Y. Chjan, Phys. Rev. A 107, 023316; J. Fan, G. Chen va S. Jia, Phys. Rev. A 102, 063311 va boshqalar).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotning asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruzalar qilinib, tegishli muhokamalardan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etgan ilmiy nashrlar ro'yxatida 11 ta ilmiy maqola (1 ta respublika va 10 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, bitta ilova va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 165 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyasining birinchi bobi "**Boze-Eynshteyn kondensatining kollapsi**" deb nomlangan kvazi-ikki o'lchovli BEKning kollaps jarayonini, shu jumladan SOB spinning o'zaro ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Bundan tashqari, Rabi chastotasi bilan spin komponentasining ichki va o'zaro ta'sirlar ko'rib chiqiladi. Ushbu bobda biz SOB bilan BEKning kollaps jarayonini stabillashtirish (barqarorlashtirish) sharti ko'rsatiladi va Rabi chastotasiga asoslangan spin komponentasining kollaps maydonini taqdim etladi. Bu yerda nazariy va eksperimental kondensatsiyalangan moddalar fizikasida keng o'rganilayotgan ikki komponentali to'lqin funksiyasi va sintetik SOB va magnit maydonlarni tavsiflovchi psevdospin-1/2 ni ko'rib chiqamiz.

Faraz qilaylik, nol Kelvin haroratda kondensatning dastlabki holati kvant garmonik potentsialning asosiy holati quyidagi shaklda tayyorlangan bo'lsin:

$$\psi(\mathbf{r}, t=0) \equiv \frac{\sqrt{N/\pi}}{a(0)} \exp\left[-\frac{r^2}{2a^2(0)}\right] \begin{bmatrix} 1 \\ 0 \end{bmatrix}. \quad (1)$$

Bu erda $[1,0]^T$ - z o'qi bo'ylab yo'naltirilgan spinning boshlang'ich holati. Spin-orbital bog'langan, psevdospin-1/2 bog'langan kondensatning keyingi dinamikasi $\psi = [\psi_1(\mathbf{r}, t), \psi_2(\mathbf{r}, t)]^T$ to'lqin funksiyasi bilan tavsiflanadi, bunda $\mathbf{r} \equiv (x, y)$, to'lqin funksiyasi zarrachalar soni N ga normallashtirilgan. To'lqin funksiyasining evolyutsiyasi quyidagi GPT tomonidan tasvirlanadi

$$i\hbar \frac{\partial \psi}{\partial t} = \left[-\frac{\hbar^2}{2m} \Delta + H_{so} - g|\psi|^2 \right] \psi, \quad (2)$$

bu yerda m zarracha massasi, H_{so} SOB Gamiltoniani. (2)-tenglamada o'zaro ta'sir konstantasi $g = -4\pi\hbar^2 a_s / ma_z$ ifoda bilan aniqlanadi, bunda a_z kondensatning z o'qi bo'ylab tarqalish uzunligi va a_s manfiy. Quyida, $\hbar \equiv m \equiv 1$ birliklar va $\tilde{g} \equiv -4\pi a_s / a_z$ o'lchovsiz birligisiz o'zaro ta'sir kuchi ishlatiladi. Uzunlik birligi sifatida $a(0)$ ixtiyoriy ravishda tanlanadi va mos keladigan vaqt birligi $a^2(0)$ bilan olinadi.

Kondensatning spindan bog'liq bulmagan kollapsi uchun umumiy energiya quyidagicha aniqlanadi

$$E = -\frac{1}{2} \int [\psi^\dagger \Delta \psi + \tilde{g} |\psi|^4] dx dy. \quad (3)$$

Kollaps evolyutsiyasini ko'rsatish uchun biz variatsion yondashuvga asoslangan Gauss ansatz funksiyasidan foydalanamiz va (3)-tenglamaga asosan umumiy energiyani quyidagi ko'rinishda olamiz

$$E = \frac{N}{2a^2} \left(1 - \frac{\tilde{g}N}{2\pi} \right). \quad (4)$$

(4) ifoda shuni ko'rsatadiki, agar parametr $\tilde{g}N$ kritik qiymat $\lambda = 2\pi$ dan ohsa, kondensat kollapslanishi mumkin, chunki energiya manfiy bo'ladi va kondensat diametric nolga intilganda energiya minus cheksizga intiladi. Kondensatning vaqtdan bog'liq diametri $a(t)$ quyidagicha aniqlanadi

$$a(t) = a(0) \sqrt{1 - \frac{\Lambda t^2}{a^4(0)}}, \quad (5)$$

bunda $\Lambda = (\tilde{g}N - \lambda) / 2$. (5) ifodadan kelib chiqadiki kollaps vaqti $T_c \equiv a^2(0) / \sqrt{\Lambda}$ va kollaps tezligi $v_c \equiv a(0) / T_c = \sqrt{\Lambda} / a(0)$ ga teng.

Endi SOBning kollaps jarayoniga ta'sirini ko'rib chiqamiz. Anomal spinga bog'liq o'zgartirilgan tezlikni quyidagicha yozamiz:

$$\mathbf{v} = \mathbf{k} + \frac{\partial}{\partial \mathbf{k}} H_{so}, \quad (6)$$

(6) ifodaning oxirgi qism to'g'ridan-to'g'ri kondensatning spiniga bog'liq qo'shimcha hisoblanadi. Bu erda oqim (doimiy hyarakat) zichligi evolyutsiyasini ko'rish uchun quyidagi formulani keltiramiz

$$\mathbf{J}(\mathbf{r}, t) = \frac{i}{2} [\psi \nabla \psi^\dagger - \psi^\dagger \nabla \psi] + \psi^\dagger \left[\frac{\partial}{\partial \mathbf{k}} H_{so} \right] \psi. \quad (7)$$

Kondensatning kollapsini ko'rsatish uchun biz kondensatning diametrini aniqlovchi quyidagi formuladan foydalanamiz

$$a(t) = \frac{N}{\sqrt{2\pi}} \left[\int |\psi|^4 dx dy \right]^{-1/2}. \quad (8)$$


Quyidagi shaklda Dresselhaus SOB simmetriyalangan Gamiltonianini tanlaymiz

$$H_{so} = \alpha (k_x \sigma_x + k_y \sigma_y), \quad (9)$$

bu yerda α SOB doimiysi, σ_x , σ_y - mos ravishdagi Pauli matritsalar. (9)-ifodadan tezlikning mos koordinatalar bo'yicha komponentlari quyidagicha aniqlanadi


$$v_x = k_x + \alpha \sigma_x, \quad v_y = k_y + \alpha \sigma_y. \quad (10)$$

Spin tezligiga mos bir aylanishga ten xarakterli masofa $L_{so} = 1 / \alpha$ bilan belgilanadi.



1-rasm. (8)-tenglama va (2)-tenglamaning to'g'ridan-to'g'ri sonli yechimi bilan aniqlangan kondensat diametrining dinamikasi. Egri chiziqlar SOB konstantasi α ning rasmda berilgan qiymatlariga mos keladi va o'zaro ta'sir parametri $\tilde{g}N = 8\pi$.

1-rasm shuni ko'rsatadiki, qisqa vaqt davomida kondensat diametri SOB ning barcha qiymatlar uchun doimiy bo'lib, shundan keyin zarralar orasidagi tortishish va spinga bo'g'liq anomal tezlik o'rtasidagi o'zaro ta'sir boshlanadi. Ko'rinib turibdiki, SOBning ma'lum bir qiymatidan so'ng, kondensat kollaps bo'lishdan to'xtaydi. Shunday qilib, BEKning kollapsini oldini olish uchun $\alpha = v_c$ olish etarli, shunda 2-rasmda ko'rsatilgandek Desselhaus SOB BEK markazidan qochuvchi zichlik oqimini keltirib chiqaradi.



2-rasm. Panellarda $\alpha = v_c$, $\tilde{g}N = 8\pi$ va mos ravishda turli vaqt qiymatlari uchun (7)-ifoda bilan aniqlangan zichlik oqimi chizmalari belrilgan.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi “**Tasodifiy potentsialdagi solitonning nochiziqli dinamikasi**” deb nomlangan bo'lib, tashqi sun'iy magnit maydonda va tasodifiy potentsialga joylashgan ichki o'zaro ta'sirga ega kvazi-bir-o'lchovli BEK tomonidan hosil bo'lgan spin-orbital bog'langan solitonlar dinamikasini o'rganishga bag'ishlangan. Kvazi-bir o'lchovli tizim sifatida koordinatali fazo mavjud deb taxmin qilinadi va tizim vaqtga bog'liq GPT yordamida namoyish etiladi. Kvazi-bir o'lchovli tizim sifatida koordinatalar maydoni $\mathbf{r} \equiv \mathbf{x} \equiv (x, t)$ deb qabul qilinadi va tizim vaqtga bog'liq quyidagi GPT tomonidan namoyish etiladi

$$i\partial_t \psi = \left[\frac{\hat{k}^2}{2} + \alpha \sigma_z \hat{k} + \frac{\Delta}{2} \sigma_x + U(x) + g |\psi_\kappa|^2 + \tilde{g} |\psi_{\kappa'}|^2 \right] \psi, \quad (11)$$

bunda $\kappa, \kappa' = 1, 2$ ($\kappa \neq \kappa'$). Bu yerda $\hat{k} = -i\partial / \partial x$ - impuls operatori, Δ - Zeeman bo'linishi, $U(x)$ - tasodifiy potentsial. Spin komponentasi o'zaro-ichki ta'siri g manfiy, ($g < 0$), va ikkala komponent uchun bir xil deb hisoblanadi. Shunda komponentalararo bog'lanish ta'siri \tilde{g} , $g = \tilde{g}$ shaklida berilgan deb taxmin qilinadi, ya'ni kondensat o'zaro ta'sir qilish energiyasi butun spin aylanishiga nisbatan o'zgarmasdir. Faraz qilaylik, (11) tenglamada $U(x) = 0$ va $\Delta = \alpha = 0$ bo'lmasin, u holda solitonning asosiy holati quyidagi ifoda bilan aniqlanadi,

$$\psi_{gr} = \frac{\sqrt{-g}}{2 \cosh[2(x - x_0) / g]} \begin{bmatrix} 1 \\ 0 \end{bmatrix}, \quad (12)$$

bu erda x_0 - solitonning massa markazining boshlang'ich nuqtasi.

Silliq tartibsizlik katta L oraliqda o'zaro bog'liq bo'lmagan tasodifiy tuqtalar x_j va o'rtacha chiziqli zichlik $\bar{n} = N_{\text{im}} / L$ bo'lgan "aralashmalar" $N_{\text{im}} \gg 1$ ta taqsimot orqali quyidagicha hosil qilinadi

$$U(x) = U_0 \sum_{j=1}^{j=N_{\text{im}}} s_j u(x - x_j). \quad (13)$$

Bu erda $s_j = \pm 1$ - j ning tasodifiy funktsiyasi, o'rtacha qiymatlari $\langle s_j \rangle = 0$, shuning uchun $\langle U(x) \rangle = 0$. Bunda biz aralashmalarni $u(y) = \exp(-y^2 / \xi^2)$ ko'rinishida olamiz, bu erda ξ potensial kengligidir.


Solitonning tasodifiy potentsialdagi dinamikasini tavsiflash uchun biz har bir kuzatiladigan \mathcal{O} bilan bog'langan va quyiagi formula bilan aniqlangan $\mathcal{O}(t)$ integral miqdorlarni o'rganamiz

$$\mathcal{O}(t) = \int_{-\infty}^{\infty} \psi^\dagger(\mathbf{x}) \mathcal{O} \psi(\mathbf{x}) dx. \quad (14)$$

Xususan, soliton umumiy impulslari $k(t)$ ni va kuchi $F(t)$ ni aniqlash uchun (14) ifodadagi \mathcal{O} o'rniga \hat{k} va $\hat{F} \equiv -dU(x)/dx$ larni qo'yib va (11) tenglamadan foydalanib, Erenfest munosabatiga o'xshash quyudagi ifodaga ega bulamiz

$$\frac{dk(t)}{dt} = F(t). \quad (15)$$


Biz boshlang'ich soliton statsionar va tasodifiy potentsial bilan muvozanat holatda deb faraz qilamiz. 3-rasmda $U(x)$ ning ko'rinishi va shu protokol yordamida tayyorlangan solitonning zichligi ko'rsatilgan. Ushbu soliton potentsialning minimumga yaqin joyda lokalizatsiyalangan va keyingi dinamika SOB va Zeeman maydonini kiritish orqali yuzaga keladi.



3-rasm. Qizil nuqtali chiziq $g = \tilde{g} = -5$ uchun solitonning boshlang'ich holati va ko'k rangli chiziq $U_0 = 0.01$, $\bar{n} = 10$ va $\xi = 1$ uchun hosil qilingan tasodifiy potentsial keltirilgan. Ichki qismdagi rasmda katta masofada ko'rsatilgan tasodifiy potentsial keltirilgan.

(11) - tenglama bilan berilgan soliton tezligi, $v(t) = dX(t)/dt$ sifatida aniqlanadi, va quyidagi ifoda bilan beriladi.

$$v(t) = k(t) + \alpha \sigma_z(t). \quad (16)$$



4-rasm. Δ ning har xil qiymatlari va $g = \tilde{g} = -5$ va $\alpha = 0.4$ uchun solitonning traektoriyasi keltirilgan. (a) paneldan ko'rish mumkinki, $\Delta = 0$ uchun soliton uzoq masofani bosib o'tadi, lekin Zeeman maydonini yoqish uning harakat trayektoriyasini cheklaydi. (b, c) panellar $\Delta = 0.1$ uchun (t, x) - tekislikdagi ikkita spinor komponentining zichliklar dinamikasi keltirilgan.

4-rasmda $\alpha = 0.4$ va Δ ning turli qiymatlari uchun soliton dinamikasi ko'rsatilgan. (a) panelda $\Delta = 0$ bo'lganda, soliton $U(x)$ ning katta tebranishga urilib teskari tezlik olguncha tartibsiz potentsial bo'ylab katta masofani bosib o'tishi keltirilgan. Zeeman maydonining mavjudligi soliton harakatini cheklaydi va oxir-oqibat Δ ning etarlicha katta qiymatlarida joyiga ushlab qoladi (bu grafikda $\Delta = 0.8$).

Biz spinning to'liq aylanishi uchun saqlanadigan o'z-o'ziga ta'sirlashuvchi energiyaga ega ingichka solitonni ko'rib chiqayotganimiz uchun adiabatik soliton $\psi_{ad}(x)$ uchun (11) chizikli qismining Gamiltonianni o'rtachasi saqlangan "kam energiya" miqdorini sifatida $\epsilon_0 = k^2(t)/2 + \alpha\sigma_z(t)k(t) + \Delta\sigma_x(t)/2 + U(X(t))$ ni kiritish mumkin, ya'ni $\sigma_z(t) = \cos\theta(t)$, $\sigma_x(t) = \sin\theta(t)\cos\phi(t)$ hisobga olgan holda ϵ_0 saqlanishni (adiabatik yaqinlashuvda tasdiqlangan) quyidagicha ifodalash mumkin.

$$v^2(t) - \alpha^2\sigma_z^2(t) + \Delta\sigma_x(t) = 2[U(X(0)) - U(X(t))], \quad (17)$$

bunda $v(t)$ tezlik (16) ifodada bilan berilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobini **“Polaronlar o'z-o'zini tashkil etishi va Boze-Eynshteyn kondensatlarining”** garmonik potentsial bilan chegaralangan bir va ikki o'lchovli BEKda polaronning kogerent bog'langan harakatining turli rejimlarini o'rganishga bag'ishlangan. Bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan kondensat shakli, evolyutsiyasi, uning massa markazi va polaron koordinatasi uchun nochizikli bo'lmagan polaron-kondensat bog'langan tebranishlari o'rganiladi. Faraz qilaylik, o'zaro ta'sir qiluvchi BEK $N \gg 1$ zarrachalar tomonidan qurilgan bo'lsin, u holda bir o'lchovli fazoda tizim quyidagi shakldagi GPT tomonidan tasvirlanishi mumkin:

$$i \frac{\partial}{\partial t} \psi(x, t) = \left(-\frac{1}{2} \frac{d^2}{dx^2} + \frac{x^2}{2} \right) \psi(x, t) + g |\psi(x, t)|^2 \psi(x, t) + V(x - X(t)) \psi(x, t). \quad (18)$$

(18)- tenglamada yangi ko'paytuvchi $V(x - X(t))$ o'rnatilgan tashqi zarracha potentsialini ifodalaydi. Biz o'rnatilgan tashqi zarrachaning potentsialini $V(x - X(t)) = V_0 \exp(-(x - X(t))^2 / 2\delta^2)$ ko'rinishida tanlaymiz, bu erda V_0 amplituda musbat yoki manfiy bulishi mumkin, va δ kondensat uzunligidan ancha kichik bolgan uzunligi. Shuning uchun, zarracha va kondensat o'rtasidagi o'zaro ta'sir energiyasini quyidagicha aniqlaymiz:


$$V(X(t)) = V_0 \int_{-\infty}^{\infty} |\psi(x)|^2 \exp\left(-\frac{(x - X(t))^2}{2\delta^2}\right) dx \approx \sqrt{2\pi\tilde{V}} |\psi(X(t))|^2, \quad (19)$$

bu erda ($\tilde{V} \equiv V_0\delta$). Yana, (19)- tenglama sifat tahlili va sonli hisoblar uchun juda mos keladi. Biz kondensat va tashqi zarralar o'rtasidagi kuchga bog'liq yondashuvni umumlashtirish uchun quyidagi aniq vaqtga bog'liq kuchdan foydalanamiz:

$$F(X(t)) \equiv -\partial_{X(t)} \int_{-\infty}^{\infty} V(x - X(t)) |\psi(x, t)|^2 dx. \quad (20)$$

Biz tashqi o'rnatilgan zarrachalarni kondensat zarrachalariga nisbatan juda og'ir deb olamiz, shuning uchun ularning trayektoriyasi quyidagi klassik Nyuton tenglamasi bilan tavsiflanadi:


$$M\ddot{X}(t) = F(X(t)). \quad (21)$$



5-rasm. BEKda polaron hosil qilish modelining sxematik shakli.

5-rasmda BEKda hosil bo'ladigan polaron modelining sxematik shakli ko'rsatilgan. Bunda $\psi(r, t)$ funktsiya $t = 0$ da BEK zichligi taqsimotini, $V < 0$ - tashqi zarrachaning tortishishuvchan potentsialini, M - massasi bildiradi va zarracha kondensat massa markazidan ma'lum masofada joylashgan. Qizil chiziqchali chiziqlar bilan parabolik potentsiali va uning asosiy holatidagi kondensat sizchlik taqsimoti, ko'k chiziq esa polaron hosil qiluvchi zarralar tufayli deformatsiyalangan kondensat zichlik taqsimoti ko'rsatilgan. Polaron va kondensatning barcha dinamiklari $t > 0$ vaqtda taqdim etiladi.


O'rnatilgan tashqi zarracha va kondensatning barcha dinamika parametrlari (18), (20) va (21) tenglamalar sistemasining sonli yechimi bilan hisoblanadi. Kondensatning barcha parametrlari (14) tenglama bilan aniqlanadi.



6-rasm. Grafiklarda berilgan massa qiymatlari uchun polaron harakatining traektoriyalari (a), kondensatning massa markazi traektoriyalari (b) va massa markazining $X(t)$ ga nisbatan holati

($t \leq 40$ vaqt uchun) (c), (d) grafiklari keltirilgan. O'zaro ta'sir qilmaydigan BEK ($g = 0$)da polaronning dastlabki parametrlari quyidagicha olingan: $X(0) = 0.5$, $\delta = 0.1$, $V_0 = -1$.

6-rasmda polaron va kondensatning massa markazining o'zaro bog'liq tartibsiz dinamikasi keltirilgan. Natija shuni ko'rsatadiki, polaron massasining ortishi polaron tebranishlarida tartibsiz impulslarning kamayishiga olib keladi, chunki polaronning massasi kondensatning umumiy massasiga yaqin bo'lsa, u holda sistema kvazi muvozanat holatida kelib qoladi. (c) va (d) chizmalarda qizil (qora) nuqta polaronning dastlabki (yakuniy) holatiga mos keladi. E'tibor beraylik, (c) chizmadagi boshlang'ich nuqtasi ($(X(t), \langle x(t) \rangle)$) -traektoriya bilan to'ldirilgan parallelogram strukturasidan tashqarida joylashgan. Bu tebranishlarning nochiziqli tabiatining kelib chiqib, tashqi zarra dastlab kondensat zichligi yuqori bo'lgan hududga tortiladi va keyin ulangan tebranishlar boshlanadi.



7-rasm. Polaron trayektoriyasi (a), massa markazi trayektoriyasi (b) va kondensatning kengligi (c) harakatining chizmalari keltirilgan. Bu erda polaron boshlang'ich parametrlari $M = 0.05$, $X(0) = 0.5$, $\delta = 0.3$, $V_0 = -0.5$ ko'rinishida olingan bulib kondensat o'zaro ta'sir parametri qiymatlari chizmada keltirilgan.

Ichki o'zaro ta'sirga ega BEKning polaron va kondensatning dinamikasiga ta'siri 7-rasmda ko'rsatilgan. E'tibor beraylik, kutilganidek, $g = 3$ uchun $X(t)$ ning ba'zi dastlabki tebranishlari $g = 6$ ga qaraganda qisqaroq davrga ega. Biroq, vaqt o'tishi bilan nochiziqli ta'sir effekti kuchayadi va va farqni aniqlash qiyin bo'ladi. Tomas-Fermi yaqinlashuvidagi BEK chegaralari mos ravishda $g = 6$ uchun $x_{\max} = 2.08$ va $g = 3$ uchun $x_{\max} = 1.65$ ga teng.

Shuningdek, parabolik potentsial bilan chegaralangan o'zaro ichi ta'sirga ega bo'lmagan kvazi-ikki o'lchovli BEKda polaronning o'zabor bog'langan dinamikasi o'rganildi. Ikki o'lchovli BEK uchun (18) tenglamada x koordinata $\mathbf{r} = (x, y)$ bilan almashtiriladi. Ikki o'lchovli tizim uchun polaron kondensatning massa markaziga nisbatan perpendikulyar bo'lgan boshlang'ich v_0 tezlikka ega deb faraz qilinadi. Bunda barcha dinamik (18)-(21) tenglamalar ikki o'lchovli koordinatali tekisligida ifodalanishi va tenglamalarni sonli yechish orqali tahlil qilinishi mumkin.

Kondensatdagi o'rnatilgan tashqi zarracha dinamikasini tushunish uchun biz statik BEC holatidan boshlaymiz. Kondensat va polaron o'rtasidagi o'zaro ta'sir nisbatan juda kichik ($\tilde{v} \ll 1$) deb faraz qilamiz va bu kondensat zichligi

deformatsiyalanmaydi va u doimo tinch holatda bo'ladi. Natijada zarrachalar dinamikasi faqat (21) tenglama yechimi bilan aniqlanadi. (18)- GPTning statik yechimi bilan (19)- energiya taqribiy echimidan foydalanib, biz (21) tenglamani quyidagi shaklda qayta yozamiz

$$M \ddot{\mathbf{R}}(t) = -2\pi\tilde{V} \frac{\partial |\psi(\mathbf{R}(t))|^2}{\partial \mathbf{R}(t)} \equiv 4\tilde{V}\mathbf{R}(t)\exp(-R^2(t)), \quad (22)$$


(19)- energiya polaron va kondensat o'rtasidagi tortishishuvchanlikni ifodalagani sababli, (20) tenglama zarracha uchun markazga tortuvchi kuchini ta'minlashi mumkin. Bundan kelib chiqadiki, $\mathbf{R}(0)$ vektorga perpendikulyar bo'lgan har qanday boshlang'ich tezlik $\mathbf{v}(0)$ uchun zarrachaning aylana traektoriyasining tenglamasi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi

$$M \frac{v_0^2}{R_0} = F(R_0), \quad (23)$$

bu erda $v_0 \equiv |\mathbf{v}(0)|$ va $R_0 \equiv |\mathbf{R}(0)|$. Aslida, aylanma traektoriya tufayli bizda tezlik $v(t) \equiv v_0 = \text{const}$, bundan kelib chiqadiki $R(t) \equiv R_0 = \text{const}$. (22) va (23) tenglamalardan foydalanib, quyidagi tenglamani olamiz

$$Mv_0^2 = 4|\tilde{V}|R_0^2 \exp(-R_0^2). \quad (24)$$


Natijada (24) tenglama statik BEKda o'rnatilgan zarrachaning aylana traektoriyasini aniqlaydi. Endi faraz qilaylik, berilgan dastlabki tezlik $\mathbf{v}(0)$ va joylashuv nuqtasi $\mathbf{R}(0)$ (24)- tenglamani qanoatlantirmasin. (24). Bunda, agar $Mv_0^2 < 4|\tilde{V}|R_0^2 \exp(-R_0^2)$ bo'sa, u holda zarracha traektoriyasi aylana orbita ichida kvazi-apsidal presessiya bo'yicha harakatlanadi yoki agar $Mv_0^2 > 4|\tilde{V}|R_0^2 \exp(-R_0^2)$ bo'lsa, u holda zarracha traektoriyasi aylana orbitadan tashqarida kvazi-apsidal presessiya bo'ylab harakatlanadi. 9-rasmda har xil boshlang'ich tezlikka mos keladigan zarrachalarning uchta traektoriyasi ko'rsatilgan aylana, : aylanadan tashqarida elliptik presessiya va aylana ichidagi elliptik presessiya.



9-rasm. Statik BEK uchun o'rnatilgan zarrachaning (x, y) tekislikdagi traektoriyasining grafigi. Zarrachaning dastlabki parametrlari $M = 1$, $\mathbf{R}(0) = (1, 0)$, $\tilde{V} = -10^{-2}$ ko'rinishida olingan. Chiziqlar turli xil quyidagi dastlabki tezliklarga mos keladi: $\mathbf{v}(0) = (0, 0.5v_0)$ - qizil kesmali chiziq, $\mathbf{v}(0) = (0, v_0)$ - qora uzluksiz chiziq va $\mathbf{v}(0) = (0, 1.1v_0)$ - ko'k nuqtali chiziq.

9-rasmda zarracha traektoriyasi aylana bo'ylab harakatlanishi uchun tezlik $v_0 = 2(|\tilde{V}| R_0^2 \exp(-R_0^2))^{1/2} \approx 0.121$ ga va aylanish davri $t_0 = 2\pi R_0 / v_0 \approx 51.8$ ga teng. (a) grafikda traektoriyalar vaqti t_0 tent, (b) grafikda traektoriyalar zarrachaning dastlabki holatiga (ko'k nuqta) qaytgan vaqti t_f ga to'g'ri keladi ($\mathbf{R}(t_f) \approx \mathbf{R}(0)$). (a) chizmadan ko'rinib turibdiki, garchi boshlang'ich tezligi $0.5v_0$ ga kamaygan bo'lsa ham, qizil nuqtali traektoriya zarrachaning to'liq bir aylanishdan ko'proq masofani bosib o'tgan. Mos ravishda, ko'k nuqta bilan belgilangan traektoriya tezligi $1.1v_0$ ga oshirilsa ham, trayektoriya to'liq bir aylanani tashkil etmagan. Bu xususiyatlar, tevlilik trayektoriya bo'lab o'zgaruvchanligini, yani markazga yaqin joyda oshishini va uzoqlashgan sari kamayishini ko'rsatadi.

Polaron hosil qiladidan zarralar uchun (22)-(24) tenglamalar o'rinli bo'lmaydi, chunki BEK ning boshlang'ich holatining deformatsiyasi tufayli polanlar uchun tashqi potentsial rolini o'ynaydigan BEKning dinamikasi hosil bo'ladi. Shu sababli, polaron potentsialining dastlabki parametrlari asosida deformatsiyalangan kondensat dinamikasi tufayli polaronning traektoriyasi o'ta tartibsiz bo'ladi.



10-rasm. (a), (c)- polaron va (b), (d)- kondensat massa markazi traektoriyalarining (x, y) tekislikdagi chizmalari berilgan. Dastlabki parametrlar $M = 1$, $\mathbf{R}(0) = (1, 0)$, $\tilde{V} = -10^{-1}$ ko'rinishida olingan. (a, b) chizmalar $\mathbf{v}(0) = (0, v_0)$ va (c, d) chizmalar $\mathbf{v}(0) = (0, 0.5v_0)$ boshlang'ich tezliklarga mos keladi.

